

60811500-Zooinjeneriya (qorako'Ichilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishining fanlar kesimida kasbiy kompetensiyalari
JADVALI

Fanning malakaviy kodi	Fanning nomi	Fan yordamida egallanadigan zaruriy kasbiy kompetensiyalar	Kurslar kesimida fanning o'quv jarayonidagi o'rni			
			I	II	III	IV
Majburiy fanlar						
SAKT1104	Sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalari	Bo'lajak mutaxassislariga "sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" dan zamonaviy yangi nazariy va amaliy bilimlarni berish, faoliyatiga oid malaka va ko'nikmalarni shakllantirish	•			
AFK1105	Analitik va fizkolloid kimyo	Bo'lajak mutaxassislariga analitik va fizkolloid kimyoning kimyoviy va fizik-kimyoviy usullarining zamonaviy nazariy asoslarini va amaliy bilimlarni berish, faoliyatiga oid malaka va ko'nikmalarni shakllantirish	•			
HB1204	Hayvonlar biokimyosi	Hayvonlar organizmida kechayotgan hayotiy jarayonlarni, bu jarayonlarning hayvonlar turiga, jinsiga, zotiga, yashash sharoitiga, mahsuldorligiga va boshqa omillarga qarab, biokimyoviy tarkibi, ularda kechadigan biokimyoviy jarayonlarning borishi, asosiy moddalarning qanday o'zgarishini bilish, ularni amaliyotda tadqiq etish ko'nikmasi va malaksini hosil qilish.	•			
O'EYT1205	O'zbekistonning eng yangi tarixi	Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o'zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko'rsatish va jamiyat hayotida talabning o'rnini, o'zligini anlatishdan iborat.	•			
F1305	Falsafa	Falsafa fani barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'tilishi belgilangan bo'lib, o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, unga munosabat bildirishni shakllantiradi hamda analitik, sintetik, kreativ tafakkurni hosil qiladi. Shuning uchun falsafa fani yosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash mahorati, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.	•			
O'RT1104	O'zbek (rus) tili	Nofilologik yo'nalishlarda rus tilini o'rgatishdan asosiy maqsad - kelgusi mutaxassislarda kundalik hayotlari, ilmiy va kasbiy faoliyatlarida rus tilidan erkin foydalanuvchi mutaxassislarni	•			

XT1108	Xorijiy til	<p>tayyorlash. Talabalarining nutq (o'qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish), til (leksik, grammatik), ijtimoiy-madaniy va pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish;</p> <p>- ilmiy, kasbiy va maishiy faoliyatga bog'lik mavzular yuzasidan og'zaki va yozma bayon etish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.</p> <p>Nofilologik yo'nalishlarda xorijiy tilni o'rgatishdan asosiy maqsad – kelgusi mutaxassislarda kundalik hayotlari, ilmiy va kasbiy faoliyatlarida chet tilidan erkin foydalanuvchi mutaxassislarni tayyorlash. Talabalarining nutq (o'qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish), til (leksik, grammatik), ijtimoiy-madaniy va pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish;</p> <p>- ilmiy, kasbiy va maishiy faoliyatga bog'lik mavzular yuzasidan og'zaki va yozma bayon etish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, talabalar uchun belgilab berilgan A1 (CEFR) va undan yuqori darajalarni egallashga qaratilgan.</p>	•			
ChMA1106	Chorvachilikni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish	<p>Chorva mollarini saqlash, asrash va mahsulotlarni ishlab chiqarishda jarayonlarida avtomat va qishloq xo'jalik mashinalarini ekspluatatsiya qilish malakasiga ega bo'lish.</p>	•			
HM1105	Hayvonlar morfologiyasi	<p>Hayvonlar va parrandalar morfologik tuzilishining, hujayralarning ultratuzilmasi, shakllanish va ko'payish qonuniyatlarini, to'qimalarni hosil bo'lishi, gistologik tuzilishini, organlar tizimlarining makro-mikroskopik tuzilishi, topografiyasi, embrional taraqqiyotini kechish tamoyillarini aniqlash ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.</p>	•			
GB1108	Genetika va biotexnologiya	<p>Irsiyat va o'zgaruvchanlik to'g'risida tushuncha, biotexnologiya va gen injeneriyaning yaratilishi, jinsiy ko'payishda belgilarning naslga berilish qonuniyatlari, jins bilan bog'langan holda belgilarning naslga berilishi, jinsni sun'iy boshqarish muammosi, mutasiya, uning umumiy xususiyatlari va klassifikatsiyasi, nuqsonlar va ularning oldini olish chora-tadbirlarini o'rgatishdan iboratdir.</p>	•			
QA1304	Qorako'chilik asoslari	<p>Qorako'l zotli qo'ylarning kelib chiqishini, evolyusiyasini, rivojlanishi va dunyoda tarqalishini, biologik va mahsuldorlik xususiyatlarini, urchitish, tanlash va juftlash usullarini, zotning tarkibiy tuzilishini, naslchilik ishini, xo'jalik uchun foydali belgilarining va naslchilik ishini to'g'ri olib borishning o'ziga xos xususiyatlarini</p>	•			

M1306	Mikrobiologiya	o'rgatishdan iboratdir. Mikroorganizmlarning umumiy xususiyatlari, infeksiyon kasallik qo'zg'atuvchilari, o'simlik va chorvachilik dunyosi oziqalardagi mikroorganizmlarni tekshirish.				•	
QT1306	Qorako'l terishunosligi	Oliy o'quv yurti hayotiga tezroq moslashishga yordam berish, o'quv jarayonida ularning o'zlashtirishini yaxshilash va shu asosda talabalar safidan chiqarish ko'rsatkichlarining keskin kamayishini, talabalarga o'z mutaxassisligi bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlar berish, talabalarga institut ichki tartibqoidalarini o'rgatish, tanlagan mutaxassisligi bo'yicha kelgusidagi faoliyati haqida tushuncha hosil qilish, oliy o'quv yurtlarida talabalarning 193 huquq va majburiyatlarini haqida ma'lumotlar berish.				•	
QXHU1406	Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish	Chorva mollari va parrandalarini mahsuldorlik bo'yicha genetik salohiyatini yuzaga chiqarish, shaxsiy taraqqiyotini boshqarish, hayvonlarni kompleks belgilari bo'yicha tanlash, juftlash, zotlarni yaxshilash va yangi zotlar, podalar, tizimlar va oilalar yaratishda urchitish usullaridan foydalanish				•	
OYY1406	Ozuqa yetishtirish va yaylovshunoslik	Qishloq xo'jalik hayvonlari ozuqa ratsionidagi mavjud ozuqa turlarini bilish va ularni etishtirish, ozuqalar xosildorligi, yaylov chorvachiligida iste'mol qilinadigan o'simliklar turlari, xosildorligi, to'yimligini bilish.				•	
IA1406	Ipakchilik asoslari	Ipak qurtining rivojlanish davrlari, qurtning tashqi va ichki tuzilishi, urug'ini inkubatsiya qilish, qurt boqish agrotexnikasi, pilla o'rash va pillalarni terib topshirish, pillarga dastlabki ishlov berish, ipak qurtining asosiy zot va durugaylari, urug' tayyorlash texnologiyalarini bilish.				•	
HF1406	Hayvonlar fiziologiyasi	Qishloq xo'jalik hayvonlarning nafas olish, qon aylanish, ovqat xazm qilish va boshqa organizmda kechadigan fiziologik jarayonlarni bilish.				•	
ZChBL1506	Zoogiyena va chorvachilik binolarini loyihalash	Qishloq xo'jalik xayvonlarning saqlash sharoitini, chorvachilikni rivojlantirishning gigienik axamiyati, chorva uchun bino va inshootlarini loyihalashtirish.					•
VA1506	Veterinariya asoslari	Chorva mollari kasalliklari va ularni oldini olishni bilish, chorvachilikda veterinariya sanitariya tadbirlarini amalga oshirish.					•
ChIChTEM	Chorvachilikda ishlab chiqarishni	Chorvachilikda mulkiy munosabatlarni yangicha shakllantirish					•

1506	tashkil etish va menejment	asosida xo'jalik yuritishning maqsadga muvofiq shaklini tatbiq etish va boshqarish, bozor iqtisodiyoti talablari asosida ishlab chiqarishni tashkil etish ular ongiga chorvachilikda fermer xo'jaliklarini tashkil etishning xuquqiy asoslarini singdirish; chorvachilikda fermer xo'jaliklarini tashkil etish va menejmentni rivojlantirish va ularni dolzarb muammolarini ochib berish; chorvachilikda ishlab chiqarishni tashkil etish va menejment to'g'risida amaliy ko'nikmalarni xosil qilishdan iborat			
HO1506	Hayvonlarni oziqlantirish	Ozuqalarning zootexniyaviy tahlili, ularning kimyoviy tahlili va to'yimlilikini baholash, qishloq xo'jalik hayvonlarining to'yimli moddalar va energiyaga bo'lgan talabalarini belgilash, ratsion tuzish va uni tahlil qilish hamda oziqlantirishning to'laqiyatligini nazorat qilish metodlarini bilish va qo'llash.			•
AHSU1506	Akusherlik va hayvonlarni sun'iy urug'lantirish	Jinsiy jarayonlarning fiziologiyasi va patologiyasi, urug'lantirish, otalanish, bo'g'ozlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi davr, yangi tug'ilgan hayvon kasalliklari, sut bezi kasalliklari, shuningdek naslsizlik va qisirlikning oldini olishni, davolashni bilish.			•
JT1606	Jun tovarshunosligi	Jun tolasini shakllanishning umumiy qonuniyatlarini, junning assortimentini, uning sifati bilan bog'liq bo'lgan omillarini, uni baholashni va nazorat qilish usullarini, jinni keyinchalik qayta ishlashda kam harajat sarflab undan eng ko'p foydalanish maqsadida jinni saqlash sharoitini bilish.			•
YT1606	Yilqichilik va tuyachilik	Yilqichilik va tuyachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va uning rivojlanish istiqbollari, ot va tuyalarning ish kuchidan qishloq xo'jaligida va transport sifatida samarali foydalanish, ot va tuyalarning mahsuldorlik ko'rsatkichlari, yaylov yilqichiligi va tuyachiligi, yilqichilik va tuyachilikda nasichilik ishlari, otlarni mashq qildirish va sinash, ot sporti turlari hamda o'yinlari va ularning dunyo miqyosida tutgan o'rni haqida bilim beradi.			•
QTT1606	Qorako'l teri tovarshunosligi	Qorako'l terilariga birlamchi ishlov berish, qorako'l homilasida gul paydo bo'lishi, teri mag'zining xususiyatlari ko'k rangli, sur rangli terilarning o'ziga xos tovarlik qimmatini belgilaydigan xususiyatlari, terilarni xillash, oshlash, iylash, bo'yash xususiyatlari beradi.			•
QE1704	Qo'ychilik va echkichilik	Qo'ychilik va echkichilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, qo'y va echki zotlarining kelib chiqishi, qo'ychilik va echkichilikdan			•

		olinadigan mahsulot, qo'y va echki bosh sonini ko'paytirishda naslchilik va seleksiyaning o'rni, qo'ychilik va echkichilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi, istiqbolli zotlarni keng miqyosida ko'paytirish va takomillashtirish, mahsulot sifatiga ta'sir qiluvchi omillar va ularning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish kabilarni o'rgatadi.			
Q1708	Qoramolchilik	Qoramolchilikni rivojlanish istiqbollari, qoramollar ekstereri va konstitutsiyasi, sut va go'sht mahsuldorligi, ularni baholash ko'rsatkichlari, sut va go'sht mahsuldorligiga ta'sir qiluvchi omillar, turli mahsuldorlik yo'nalishidagi zotlarning xususiyatlari sigirlarning sut mahsuldorligini; qoramollarning go'sht mahsuldorligini hisobga olish va baholash haqida bilimlar beradi.			•
P1708	Parrandachilik	Parrandachilikda naslchilik ishlarini tashkil etish; tuxum, parranda go'shti, pat va va boshqa ikkilamchi parrandachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash, qayta ishlash va standartlashda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, parrandachilikda veterinariya sanitariya tadbirlarini amalga oshirish; parranda tuxumlarini inkubatsiya qilish va jo'jalarni o'stirish bilish.			•
QMDQITS1 804	Qorako'lchilik mahsulotlarini dastlabki va qayta ishlash texnologiyasi va standartlash	Qishloq xo'jalik hayvonlarni dastlabki qayta ishlash texnologiyasini, Go'sht, sut, baliq, tuxum va boshqa chorvachilik birlamchi va ikkilamchi mahsulotlarini dastlabki vaqayta ishlash texnologiyasini bilish.			•
QNI1806	Qorako'lchilikda naslchilik ishi	Naslchilik ishini to'g'ri yo'lga qo'yish, turi yo'nalishdagi qo'y zotlarini, shu jumladan qorako'l qo'ylarining qora, ko'k, sur, oq, guligaz, qambar va boshqa rangdagilar bilan naslchilik ishini olib borish, urchitish, tanlash va saralash usullari, har xil kategoriya xo'jaliklarida naslchilik ishlarini yurgizish tartibini bilish.			•
Tanlov fanlar					
JTS2102	Jismoniy tarbiya va sport	Jismoniy tarbiya va sport, sog'lom turmush tarzi, jismoniy barkamolikka intilish, va o'z-o'zini tarbiyalash, jismoniy mashqlar bilan muntazam ravishda shug'ullanish zaruratini shakllantiradi			•
MK2202	Mutaxassislikka kirish	Oliy o'quv yurti haftiga tezroq moslashishga yordam berish, o'quv jarayonida ularning o'zlashtirishini yaxshilash va shu asosda talabalar safidan chiqarish ko'rsatkichlarning keskin kamayishini, talabalarga o'z mutaxassisligi bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlar berish,			•

		talabalar institut ichki tartibqoidalarini o'rgatish, tanlagan mutaxassisligi bo'yicha kelgusidagi faoliyati haqida tushuncha hosil qilish, oliy o'quv yurtlarida talabalarning 193 huquq va majburiyatlarini haqida ma'lumotlar berish.			
O'TSQ2202	O'zbek tilini sohada qo'llanilishi	Nofilogik yo'nalishlarda o'zbek tilining sohada qo'llanilishi fanining asosiy maqsadi -bo'lajak mutaxassis kelgusida ish yuritish va soha terminologiyasi haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi; hujjatlarni to'g'ri yoza olish va terminlarni o'rinni qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi; ish qog'ozlarini imlo xatolasiz, terminlarni esa o'z o'rnida ishlata olish malakasiga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birgalikda o'z sohasi va kasbiy faoliyatida o'zbek tilining qo'llanilishini muhim jihatlarni anglay olishi zarur.	•		
BR2205	Biofizika va radiobiologiya	Biofizik jarayonlarini, tabiatda uchraydigan radioaktiv izotoplarining manbalari va ularning tirik organizmga biologik ta'sirini, yadroviy nurlanishlar natijasida hayvonlar organizmida paydo bo'ladigan patologik o'zgarishlarni bilish, hayvonlarda nurlanishlar oqibatida kelib chiqadigan kasalliklarni diagnostika qilish va davolashda fizikaviy usullarni to'g'ri qo'llash ko'nikma va malakalariga ega bo'lish.	•		
EAMM2404	Ekologiya va atrof-muhit muxofazasi	Bo'lajak mutaxassislariga ekologiya va atrof-muhit muxofazasi ning ekologik va atrof-muhit muxofazasiga oid nazariy asoslarini va amaliy bilimlarni berish, faoliyatiga oid malaka va ko'nikmalarni shakllantirish	•		
ChI2604	Chorvachilikda innovatsiyalar	Oliy o'quv yurti haetiga tezroq moslashishga yordam berish, o'quv jarayonida ularning o'zlashtirishini yaxshilash va shu asosda talabalar safidan chiqarish ko'rsatkichlarining keskin kamayishini, talabalarga o'z mutaxassisligi bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlar berish, talabalarga institut ichki tartibqoidalarini o'rgatish, tanlagan mutaxassisligi bo'yicha kelgusidagi faoliyati haqida tushuncha hosil qilish, oliy o'quv yurtlarida talabalarning 193 huquq va majburiyatlarini haqida ma'lumotlar berish.	•		
ChPMTT270 6	Charmbop, po'stinbop va mo'ynabop teri tovarshunosligi	Charmbop, pustinbop va muynabop teri beruvchi xayvonlarni suyishga muljallanganlarini tashish, suyish va suyish davrida saklash, teri shilingandan keyin ruy beradigan o'zgarishlar, chambop, muynabop va pustinbop terilarni tuzilish tarkibi, tovarlik xususiyatlari, teri xom ashyosiga dastlabki ishlov berish texnologiyasi, charmabop	•		

A2705	Asalarichilik	<p>xomashyosining xususiyati va tasnifi bilish.</p> <p>Asalarilarni ko'paytirish va urchitish usullarini, naslchilik ishini olib borishni, oziqa qiyomini tayyorlashni hamda asalarichilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, asalni tashish, saqlash, qayta ishlash, iste'molchiga etkazib berish, ona asalari etishtirishni, ko'paytirishni, asalarichilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni bilish.</p>						
QM2705	Quyunchilik va mo'ynachilik	<p>Quyunchilik va muynachilikning rivojlanish istiqbollari, halqimizga parhez go'sht, chidamli va chiroyli mo'yna xomashyosi, qimmatli va sifatli tivit etishtirib berish, quyonlarning kelib chiqishi, ularni xonakilashtirish, go'sht mahsuldorligi, teri mahsuldorligi, shuningdek tivit va qo'shimcha mahsulotlar etishtirishni bilish.</p>						
ChKSXX280 4	Chorvachilikda konsalting va servis xizmat ko'rsatish	<p>Maxsus chorvachilik xo'jaliklarini tashqil qilish va ro'yxatdan o'tkazish, Maxsulotlar va xizmatlar bozorlarini, innovatsiyalarni tadqiq etish va prognozlashga oid masalalarda maslahatlar, tavsiyalar berishdan iborat faoliyat. Ishlab chiqish va qo'shma korxonalar tashqil etish va boshqa bo'yicha o'z xizmatini taklif etish. Chorvachilik xo'jaliklarida maslahat xizmatining ayrim sohalari bo'yicha ixtisoslashishi mumkin. Yangi xo'jalik tashqil qilishda ta'sis hujjatlari majmuini tayyorlashni bilish.</p>						